

TARJIMA JARAYONIDA MUAYYAN UNSURLAR O'RNINI ALMASHTIRISH TAMOYILLARI

G'oyibnazarova Sitora Ulug'bek qizi

Student of Termiz State University

[*goyibnazarovasitora720@gmail.com*](mailto:goyibnazarovasitora720@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima jarayonida yuz beradigan muayyan unsurlar o'rnini almashtirish haqida umumiy ma'lumot berilgan. Jumladan, so'zlar, so'z birikmalari, mustaqil gaplarni va qo'shma gap qismlari haqida ham aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** so'zlar, so'z birikmalari, almashtiruv, muayyan unsurlar, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar va boshqalar.*

PRINCIPLES OF REPLACEMENT OF CERTAIN ELEMENTS IN THE PROCESS OF TRANSLATION

***Abstract:** This article provides general information about the replacement of certain elements that occur in the translation process. In particular, words, phrases, independent sentences and parts of compound sentences were also mentioned.*

***Keywords:** words, phrases, substitution, specific elements, participles, secondary clauses, etc.*

KIRISH

Tarjima muqobilliga erishish uchun tarjimon turli-tuman tillararo o'zgartirishlar-tarjimonlik transformatsiyalaridan foydalana olishni bilishi kerak. Albatta bunday o'zgartirishlar ma'lim bir maqsadni ko'zlab bajariladi, ya'ni, asl matndagi barcha axborotlarni tarjima matnida iloji boricha to'liq berish maqsadida. Tarjimonlik transformatsiyalarning bir turi deb sanalgan muayyan unsurlar o'rnini almashtirib qo'yish deganda biz tarjima matnida asl matnga nisbatan til elementlarining ketma-ketlik tartibini o'zgartirilishini tushunamiz.

Odatda quyidagi elementlarning o'rnini almashtirib qo'yish mumkin: so'zlar, so'z birikmalari, mustaqil gaplarni va qo'shma gap qismlarini. Bu yerda bir nechta misollar orqali izohlab o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ushbu maqolada Katti Daleyning "Cottage on Gooseberry Bay" asarining tarjimasida jarayonida yuzaga keladigan muayyan unsurlar o'rnini almashtirish mavzusida tahlil olib boriladi va tahlillar ko'rib chiqiladi.

NATIJA

Tillarning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra tarjima jarayonida so'z va so'z birikmalarining gapdagi o'rnini o'zgartirish eng ko'p uchraydigan holdir. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibi bir xil emas; tabiiyki bu narsa tarjima jarayonida ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shuningdek, tarjimada muayyan unsurlar o'rnini almashtiruvga misollar keltirildi va muammolarga yechim keltirilib, yoritib berildi.

MUHOKAMA

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarjima jarayonida unsurlar almashuvini orasida yuz beradigan o'zgarishlarni izohlashni boshlaymiz. Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida muayyan unsurlar o'rnini almashtirish tarjima jarayonida katta rol o'ynaydi. Bu jarayon matndagi so'zlar va iboralar tartibini yangi tilda tabiiy uslubda qayta tiklashga yordam beradi. Turli tillarda grammatik tuzilmalar va gap tartibining o'ziga xosligi sababli, bunday o'rin almashtirish ma'no va mazmunni to'g'ri yetkazish uchun zarur bo'ladi. Quyida ushbu jarayonning lingvistik xususiyatlari va amaliy ahamiyati ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan misollar asosida yoritiladi. Ingliz tilida gaplar odatda qat'iy tartibga ega: Ega + Kesim + To'ldiruvchi. O'zbek tilida esa gap tuzilishi nisbatan moslashuvchan bo'lib, kesim odatda gap oxirida keladi. Masalan: Inglizcha: "I let the image of the man". Bu gapda quyidagi asosiy qismlar mavjud: (ega: I,

kesim: let, to'ldiruvchi: the image of the man). Ingliz tilida gapda tartib: (Ega + Kesim + To'ldiruvchi). O'zbekcha: "Men odamning tasvirini ko'z oldimda

gavdalantirdim”. Bu yerda ingliz tilida kesim oldin kelsa, o‘zbek tilida u gap oxiriga ko‘chiriladi: (Ega + To‘ldiruvchi + Kesim). Tarjima jarayonida so‘zlarning joylashuvi nafaqat grammatik jihatdan, balki hissiy mazmuni to‘g‘ri ifodalash uchun ham o‘zgartiriladi: Inglizcha: “I do not suppose you can suggest an alternative lodging property that accepts dogs”.(ega: I, kesim: do not suppose yordamchi gap: you can suggest an alternative lodging property that accepts dogs). O‘zbek tilida tarjima: “Menimcha, siz itlarga ruxsat beradigan boshqa turar joyni tavsiya qila olmaysiz”. Gapdagi so‘zlar tartibi: (Ega + Kesim + To‘ldiruvchi). Bu gapda suggest so‘zi markaziy o‘rin egallagan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida u mazmuni sodda va ravon yetkazish uchun boshqacha tartibda joylashtirilgan. Shuningdek, Inglizcha: “I do not mind. The place will need a good cleaning”. Tarkibi: Birinchi gap: (ega: I, kesim: do not mind), Ikkinchi gap: (ega: the place, kesim: will need, to‘ldiruvchi: a good cleaning).O‘zbek tilida tarjima: “Mening e’tirozim yo‘q. Joyni yaxshi tozalash kerak bo‘ladi” deb tarjima qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjimon asliyat tilidagi asar yoki matnni tarjima adekvatligiga mos tarzda tarjima qilishi va ma’nodagi g‘alizlikni oldini olish uchun tarjima jarayonida almashtiruv turlaridan foydalanishi, umumlashlashtirishi, muqobil variantiga to‘g‘ri almashtira olishi lozim. Bu jarayonda tarjima matn tilining normalariga to‘liq rioya qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43.
2. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
3. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 73-76.

4. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and Researches*, (8(30)). ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
5. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 4(07), 21-25.
6. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(9), 77-80.
7. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 37-40.
8. 2 Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. *Builders Of The Future*, 1(01), 50-52.